2. jarayon ketishi paytida unga salbiy ta'sir kiluvchi va apparatning buzulishining tezlashtiruvchi moddalarni gaz aralamalaridan chikarib tashlash uchun.

3. atrof muxit xavosining ifloslanishini kamaytirish uchun

ishlab chikarish jarayonlari davomida xosil buladigan xar-xil fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega bulgan gaz aralashmalari turli jinsli gaz d-di. Gaz aralashmalari tarkibidagi zarrachalarning ulchamiga karab 2 sistemaga bulinadi.

1. mexanik.

2. kondensirlangan.

Kondensirlangan sistema suyukliklarni buglatganda kuritish jarayonida buglarning suyuklikka aylanishida xosil buladi. Buning natijasida tutun va tuman paydo buladi.

Maxsulotni konservalash jarayonida ular idishlarga kuyilgandan sung turli xil kimyoviy va biokimyoviy uzgarishlar natijasida oksidlanish, parchalanish, bijgish kislorod xosil bulishiga sababchi buladi, ya'ni xavo pufakchalari bushliklarni xosil kiladi.

Konserva maxsulotlarida xavo bushliklarining mavjudligi maxsulotni tayyorlash, saklash jarayoniga salbiy ta'sir etib sifat buzilishiga olib keladi. Xavo bushliklari ta'sirida mikrobiologik jarayonlar tezlashib maxsulot magorlanadi, bijgiydi va achiydi. Shu sababli konserva maxsulotlari maxkamlanishidan oldin xavo pufakchalaridan tozalanishi zarur. Konserva maxsulotlaridan xavo pufakchalarini xaydash jarayoni eksgasturlash deb ataladi va u ishlab chikarishda 2 usul bilan amalga oiriladi.

1. issiklik ta'sirida

2. mexanik ishlov berish natijasida.

Issiklik ta'sirida eksgasturlashni moxiyati idishga kuyilagan maxsulotni banka bilan birgalikda issiklik ishlov berishi tushuniladi. Issiklik ta'sirida maxsulot tarkibidagi xavo pufakchalari ajralib chikib u kattik xususiyatni egallaydi. Issiklik gasturlash Bug moslamalarida maxsulotni (bankani ogzi berk) xolatida amalga oshiriladi. Sungi vaktdarda bu maksab uchun infra kizil nurlardan foydalanishga aloxida e'tibor beriladi. eksgasturlash 100°S xarorat bilan 20-60 sek mobaynida infrakizil nurlar yordamida amalga oshiriladi.

Mexanik eksgasturlashni asosiy moxiyati maxsulotni turli xil konstruksiyalarda ishlab chikarishgan aralashtirgichlar bilan aralashtirish xolida vakuum ishtirokida ishlov berish bilan boglikdir. Ma'lum bir bosimli vakuum ta'sirida xavo bushliklari suriladi. Lekin mexanik eksgasturlash chegaralangan konserva maxsulotlari ishlov berishda kullaniladi. Bu usul xam uzining ijobiy va salbiy tomonlari bilan belgilanadi.

Eksgasturlash jarayonida xavo bushliklarini yukotish natijasida xajmiy kamayish amalga oshadi va bu eksgasturlash koeffisient bilan belgilanadi.

$$K_e = \frac{V_2 - V_{1v}}{V_1} * 100\% \quad \begin{matrix} V_1 - \text{boshlangich xajm} \\ V_2 - \text{eksgasturlashdan sungi xajm} \end{matrix}$$

Odatda maxsulotni turiga karab eksqasturlashkoeffisienti $K_e=20-25\%$ ni tashkil etadi.

Sanoatda ishlab chikarilgangaz aralashmalarini tozalash uchun quyidagi usullar qullaniladi:

1. ogirlik kuchi ta'sirida mayda zarrachalarni chuktirish.
2. mayda zarrachalarni markazdan kochma va inersion kuchlar ta'sirida chuktirish.
3. gaz aralashmalarini filtr tusiklar yordamida ajratish.
4. gazlarni namlash usuli bilan tozalanadi.
5. yukori kuchlanishli elektr maydoni yordamida tozalash.

Gazlarni tozalash uchun chuktirish kameralari, siklonlar, filtrlash apparatlari (skrubber) va elektro filtrlar ishlatiladi.

Amalda gaz aralashmalardagi mayda gazchalarni birgina tozalash apparatlarida butunlay ajratish mumkin emas. Shuning uchun kupincha 2 va kup boskichli tozalash apparatlari ishlatiladi, ya'ni avval katta zarrachalar chang chuktirish kameralarida, sung elektrofiltrlarda chuktiriladi.

Xar bir apparatning unumdorligi gaz raralashmalarining tozalash ddarajasi bilan aniklanadi.

$$n = \frac{G_1 - G_2}{G_1} * 100 \% = \frac{V_1 X_1 - V_2 X_2}{V_1 X_1} * 100 \%$$

Bu yerda: G_1 va G_2 – tozalanmagan va tozalangan gaz aralashmalaridagi kattik zarrachalari mikdori.

V_1 va V_2 - dastlabki va tozalangan gaz aralashmalrining xajmi.

X_1 va X_2 - changli va tozalangan gaz aralashmalridagi kattik zarrachalar konsentrsiyalari, kg/m^3

Suyuklik bilan yuvib gazlarni tozlash.

Toza gaz olish uchun changli gazlarni su vyoki boshka suyukliklar bilan yuvib ularni chang zarrachalardan tozalanadi. Bu usul ayniksa sovugan gazlarni kondensasiyalanib, changlar namlanadi va ularning ogirligi ortib, chang zarrachalari gazdan oson ajraladi.

Mayda dispers gaz aralashmalridagi zarachalarini ajratish uchun yoki boshka suyuklik ishlatiladi. Bu jarayonlar bush yoki nasadkali skrubberlarda olib boriladi. Skrubberlar silindr simon va tugri turtburchakli kolonnalar

kurinishida buladi. Surubberlarda gaz aralashmasi 0,8...1,5m/sek tezligida, apparatning pastki kismidan yukoriga xarakat kiladi.

Oddiy skrubberlarda gaz aralashmasining tozalanish darajasi 60...75% bulsa, nasadkali skrubberlarda 70...85 % buladi. Bu apparatlarda tozalash uchun juda xam kup suyuklik sarflanadi.

Markazdan kochma skrubberlar

Gaz aralashmasi tangensial yunalishda korpusning silindr kismiga kirib markazdan kochma kuch ta'sirida aylanma xarakat kiladi. korpus devori yuzasida soplo orkali berilgan suv doim yupka plyonkaga uxshab okib turadi. Gaz okimidagi vintsimon aylanma xarakat kiladi kattik zarrachalar markazdan kochma kuch ta'sirida skrubberning devoriga urilib plyonka xolida okayotgan suv bilan yuvilib tushib ketadi. Tozalangan va sovutilgan gaz apparatning balandligi buyicha yukoriga kutarilib patrubka orkali chikib ketadi.

Sharsimon chang tozalagich.

Bu apparat shar shaklida bulib, tozalanishi kerak bulgan gaz aralashmalari apparatning yuzasi buyicha bir xil taksimlanadi. Apparat sharsimon shaklda bulganligi uchun uning asosiy elementlari apparatning yuzasi buylab ixcham va kulay joylashgan. Tarkibida mayda dispers kattik zarrachalar bulgan changli gaz okimi shtuser orkali chang turkichga kirib tusikka uriladi va natijada bir vaktning uzida tezligi kamayib uz xarakat yunalishini uzgartiradi.

Bu vaktida changli gaz okimidagi katta zarrachalar pastga karab xarakat kilib, chang tutkichning yogi bilan tuldirilgan vannasiga tushadi. Kisman tozalangan gaz okimi apparatning bush yuzasi buyicha bir xil taksimlanib aylanma xarakat kiluvchi turli diskga tushadi. Disk reduktor orkali elktron dvigatel yordamida xarakatga keltiriladi. biskning yukorigi yuza kismiga perelitr buylab joylashgan kovshgan orkali yog purkalab turdiriladi.

Diskning aylanishi natijasida yogning bir kismi vannaga tushib uni tuldiradi. Maxsus kurilma orkali gazlar tomchi turtkichlarga bir xil taksimlanadi. Jarayon davomida annaga tushgan xama kattik zarrachalar pastdagi maxsus idishga yigilib , shtuser orkali ifloslangan yog bilan vakt-vakti bilan chikarilib turiladi. Vannadagi yogning mikdori bir xil bulishi uchun xar doim shtuser orkali yangi yog kuyilib turiladi.

Ma'ruza № 8

Mavzu: Turli jinsli sistemalarni ajratish.

Reja:

- 1-s Chuktirish. Zarrachalarni ogirlik kuchi ta'sirida chuktirish konuniyatlari
- 2-s Chuktirish jarayonini jadallashtirish
- 3-s Davri va uzluksiz ishlovchi chuktirish kurilmalari.

Mavzu: Chukirish doimiylari va muxitning koeffisientini aniklash.

Maxsulotlarni kayta ishlashda sodir buladigan gidrodinamik jarayonlardagi, ya'ni suyuqlikdagi jismning muvozanatini, xarakatini va t'sirlanishini urganishdagi chuktirish doimiylari va muxitning koeffisientini urganish kerak.

Gidrodinamik deb - suyuqlik ichiga botirilgan va xarakatda bulgan jismning muvozanat xolatini, xarakatini va ta'sirlashuvini urganuvchi bulimga aytiladi. Bu bulimda sodir buladigan jarayonlar esa gidrodinamik jarayonlar deb ataladi.

Gidrodinamik jarayonlarga kuyidagilar kiradi.:

1. Suyuklik yoki gaz muxitdagi zarrachalarning gravitasiya kuch ta'sirida chukmaga tushish jarayoni.
2. Suyuklik yoki gaz muxitdagi zarrachalarning markazdan kochma kuch ta'sirida chukmaga tushish jarayoni.
3. Suyuklik yoki gaz muxitdagi zarrachalarning elektr maydoni ta'sirida chukmaga tushishi jarayoni.
4. Bosimlar farki ta'siridagi suyuqlik va gazlarning govak tusiklar yordamida filtrlash
5. Suyuk muxitdagi aralashmalar jarayoni.
6. Psevdoomiteniye , yolgon kaynash jaayoni.

Bir jisimli bulmaga yoki geterogen sistemalar deb ikki yoki uchdan ortik fazaga ega bulgan dispers muxit (ichki, ya'ni mayda zarrachalar xolidagi faza va dispersion muxit tashki) zarrachalarni urab turuvchi fazalardan iborat sistemalarga aytiladi.

Suspenziyalar – dispersion muxiti suyuq va dispers muxit kattik bulib, kuyidagilarga bulinadi: - 100mkm bulgan dagal eritma, 0,1-100 mkm bulgan chin eritma va 0,1 mkm dan kichik zarrachalarga ega bulgan kolloid eritmalarga bulinadi.

Emulsiyalar – bular ikkita suyuq muxitning aralashmasi bulib, ikkalasi bir-birida erimaydi. Emulbsiyalar gravitasion kuch ta'sirida kavatlanadi, ammo ulchami 0,4-0,5 mkmdan kichik bulgan zarrachalardan tshkil topgan va tarkibida stabilizatorlar bulgan emulsiyalar uzok muddatgacha kavatlanmasligi mumkin.

Dispers muxitning konsentrasiyasi oshib borishi bilan dispersion muxitga utib kolishi xam mumkin bunday xoll muxitlar inversiyasi deb ataladi.

Kupiklar - suyuq dispersion muxit va gz dispers muxitdan iborat buladi.

Changlar va tutunlar – gaz dispersion muxit va kattik dispers muxitdan iborat buladi. Changdagi dispers muxitning ulchamlari 3/70 mkmgacha tutunda esa 0,3/5 mkm buladi.

Tumanlar – gaz dispersion muxit va suyuq dispers muxitdan iborat buladi.

Tumanlar – buglarni kondensasiyalanishi jarayondan xosil buladi va suyuq tomchilar ulchami 0,3-3 mkm buladi.

Changlar, tumanlar va tutunlar- aerezollar deb xam ataladi.

Fazalar bulinishi: agar massa yukolishlari bulmasa:

$$G_c = G_n + G_r$$

Bu yerda: G_c - eritma mikdori, kg (ajratilgan)

G_n - tayyor maxsulot mikdori, kg

G_r - chukma mikdori, kg

Muallak zarrachalarning mikdori buyicha:

$$G_c X_c = G_n X_n + G_r X_r$$

X_c - eritmadagi moddalar mikdori, mass %

X_n - tozalangan maxsulotdagi moddalar mikdori, mass %

X_r - chukmadagi moddalar mikdori, mass %

Bu ikala tenglamani birga yechib tozalangan maxsulot mikdorini aniklash formulasini topamiz

$$G_n = G_c \frac{X_o - X_c}{X_o - X_n}$$

Chukma mikdori esa:

$$G_o = G_c \frac{X_c - X_n}{X_o - X_n}$$

Bulinish efekti:

$$Er = \frac{G_c X_c - G_n X_n}{G_c X_c}$$

Eritmaldagi muallak zarrachalarni konsentrsiyalanishini topish kuyidagi formula asosida amalga oshiriladi.

$$X_c = \frac{G_n X_n + G_o X_o}{G_c}$$

Bu yerda G_n va G_o - aralash maxsulotlar mikdori.

X_n va X_o - shd. Maxsulotlardagi muallak zarrachalarning konsentrsiyalari, mass, %

G_c - oxirgi aralashma mikdori.

Tajribalar asosida suyuqlikdagi zarrachalarning chukishida kuyidagi rejimlarga asoslanadi: laminar okim ($Re \leq 0,2$), okimdan okimga utishda ($0,2 \leq Re \leq 500$) va turbulent okim ($Re \geq 500$)

MA'RUZA № 9

Mavzu: Filtrlash jarayonlari va appaatlari, turli jinsli sistemalarni ajratish jarayoni va kurilmalari.

- 1s- Filtrlash jarayoni tugrisida tushunchalar.
- 2s- Filtr tusiklarini turlari va xarakteristikalar.
- 3s- Filtrlash uchun yrdamchi materiallar va chukma.
- 4s- Jarayonni nazariy asoslari: filtrlash tezligi, jarayonni davom etishi, yuvish, chukma, filtrdan chukmani ajratish.
- 5s- Uzlukli va uzluksiz ishlaydigan filtrlar va ularni ishlash pirnsiplari, sxemasi.
- 6s- Markazdan kochma kuch ta'sirida ishlaydigan filtrlar

Filtrlash – suspenziya va changlarni filtr tusiklari orkali utkazib tozalash jarayoniga aytiladi.

Filtr tusiklari - kattik zarrachalarni ushlab kolib, suyuqlik yoki gazni utkazib yuborish kobiliyatiga ega.

Filtr tusiklari yoki filtr sifatida

1. mayda teshikli turlar.
2. turli gazlamalar.

3. keramik buyumlar.

Filtr sifatida

1. paxta

2. yung

3. sintetik gazlamalardan tayyorlangan materiallar ishlatiladi.

Filtrlash paytida suspenziya tarkibidagi mayda zarrachalar filtrlovchi materiallarning uzida teshiklarini tuldirgan xolda utirib kolishi mumkin.

Filtrlash jarayoni 2 ga bulinadi.

1. Chukma xosil kilish yuli bilan filtrlash

2. Filtrlovchi materiallarning teshiklarini tuldirish orkali filtrlash.

Sanoatning kup tarmoklarida chukma xosil kilish suli bilan filtirlash keng kullaniladi.

Filtrlash jarayonida sikiluvchi va sikilmaydigan chukmalar xosil buladi.

1. Sikiluvchi chukmalardagi zarrachalar bosim ortishi bilan deformasiyaga uchrab ularning ulchami kichiklashadi.

2. Sikilmaydigan chukmalarda bosim ortishi bilan zarrachalarning shakli va ulchami deyarli uzgarmaydi. Filtrlash jarayonining unumdorligi va olinish filtratning tozaligi asosan filtr tusiklarining xususiyatlariga boglik.

Filtr tusiklarining teshiklari katta va gidravlik karshiliklari kichik bulishi zarur.

1. Egiluvchan

2. Egilmas buladi.

Filtr tusiklaridan oldingi va keyingi bosimlar farki yoki filtrlovchi materiallarga suyuqlik filtrlash jarayoning xarakatlantiruvchi kuchi xisoblanadi. xarakatlantiruvchi kuchlar turga karab filtrlash 2 guruxga bulinadi.

1. Bosimlar farki.

2. Markazdan kochma kuchlar ta'sirida filtrlash

filtrlash jarayoning intensivligi va filtr apparatining ish unushi filtrlash tezligi bilan xarakterlanadi.

Filtrlash apparatlari.

Kayta ishlash sanoatida ishlatiladigan filtrlar

1. Tozalanishi kerak bulgan muxitning xili.

2. Ishlash pirnsipi.

3. Filtr tusiklari.

4. Ish bosimlarning mikdoriga karab bir necha turga bulinadi.

Texnologik maksabga kura filtrlash apparatlari 2- turga bulinadi.

1. Suyukliklarni tozalash filtrlari.

2. Gazlarni tozalash apparatlari.

Bosim ostida ishlaydigan filtrlarni turlari

1. Hidrostatik bosim.
2. Nasos yoki kompressor yordamida xosil kilinadigan bosim
3. Siyraklanish (vakuum)da.
4. Markazdan kochma kuch ta'sirida xosil bulgan bosimlar ta'sirida

ishlaydigan apparatlarga bulinadi.

Filtrlash apparatlari filtrlovchi tusiklarning xiliga karab donasimon materiallar (keramik buyumlar, turlar) bilan ishlaydigan filtrlarga bulinadi.

Barcha turdagi filtrlovchi apparatlar filtrlash yuzachi xarakatiga karab 2 xil buladi.

1. Xarakatsiz filtrlash yuzasiga ega bulgan filtrlar (donasimon tusiklar, ramali va kamerali filtr press) va boshkalar.

2. Xarakatli filtrlash yuzasiga ega bulgan filtrlar (barabanli vakuum, diskli va lentali filtrlar)

Filtrlar ishlash rejimiga kura

1. davriy 2. uzluksiz ishlaydigan filtrlar

Xarakatsiz filtrlash yuzasiga ega bulgan filtrlar «davriy» ishlaydi.

Xarakatli filtrlash yuzasiga ega bulgan filtrlar «uzluksiz» ishlaydi.

Filtr-presslar

Filtr-press plita va ramalardan tuzilgan bulib, ramlarning soni 22-42 tagacha buladi. Ramalarning kalinligi 25-46 mm. Plita va ramalar yon tomonidan joylashgan sterjenga urnatiladi. Xar bir plitaga filtrlovchi gazlama (salfetka) kiydiriladi. Rama va plitalar gidrovlik kurilma –plunjer xosil kilgan bosim yordamida sikiladi. Suspenziya kanalcha orkali ramaning ichiga kirib filtrlovchi materiallardan utadi, sungra yuzasidagi arikchalar orkali pastga tushadi.. Filtrat plitaning pastki kismida joylashgan kanalcha orkali chikib, umumiy tarnovga tushadi. Ramaning ikki kismi chukma bilan tulganda, suspenziyani berish tuxtatiladi. Shundan sung yuvish uchun suv beriladi. Yuvish jarayoni tamom bulgach kuzgalmas plita chapga surilib, chukma tushiriladi.

MA'RUZA № 10.

Mavzu: Sentrafugalash jarayoni, separatorlar va siklonlar.

Reja:

- 1-s. sentrifugalash jarayoni mohiyati va foydalanish usullari.
- 2-s. filtrlash va chiqaruvchi sentrifugalalar
- 3-s. sentrifugalarni tuzilishlari va ishlash prinsiplari.
- 4-s. markazdan kuchma kuch ta'sirida ajratish separatorlarning ishlash prinsiplari va tuzilishi.
- 5-s. apparatlarning ishlash unumdorligi
- 6-s. siklonlar ularning foydalanish usullari va ahamiyati.
- 7-s. batareyali va gidrosiklonlar.

T A Y A N C h I B O R A L A R

Sentrifugalash - markazdan kuchma kuchlar ta'sirida turli jinsli sistemalarni ajratish.

Separator - suyuq faza tarkibidagi kattik fazani markazdan kuchma kuch ta'sirida ajratish. Sutdan qaymoqni.

Siklonlar – gazlar tarkibidan kattik muhitni ajratuvchi qurilmalar.

Sentrifugalash – deb

Emulsiyadagi suyuqlik tomchilarini va suspenziyadagi kattik modda zarrachalarini markazdan kuchma kuchlar maydonida ajralib olish jarayoniga aytiladi.

Sentrifugalash jarayoni sentrifugalarda amalga oshiriladi.

Sentrifugalash paytida hosil bulgan markazdan kuchma kuchlar chiqarish jarayonidagi ogirlik kuchi va filtrlashdagi gidrostatik kuchlarga nisbatan kuch ta'sir qiladi.

Shuning uchun turli jinsli sistemalarni ajratish uchun foydalaniladigan chiqarish va filtrlash jarayonlariga nisbatan sentrifugalash jarayoni juda samarali hisoblanadi.

Sentrifugalarning asosiy qismi gorizontal yoki vertikal ush joylashgan katta tezlikda aylanuvchi baraban bulib, u elektr dvigatel yordamida aylanma harakatga keltiriladi. markazdan kuchma kuch ta'sirida suspenziyadagi kattik modda zarrachalari kuchmaga tushib suyuq fazadan ajraladi.

Suyuq faza fugat d-di. Hosil bulgan kuchma baraban ichida qolib, suyuq faza esa ajratib olinadi.

Turli jinsli aralashmalarni ajratish prinsipiga kura sentrifugalalar 2 turga bulinadi

1. filtrlash sentrifugalalar.
2. chiqaruvchi sentrifugalalar

Filtrlovchi sentrifugalalar barabani goyaksimon turli metallarda ishlantirib uning yuzasiga material (mato) qoplanadi. Filtrlash sentrifugalargalarda

suspenziya yoki emulsiya markazdan kochma kuch ta'sirida baraban devoriga karab otiladi, bunda kattik modda zarrachalari filtr materialning yuza kismida kolib, suyuq faza (fugat) bu kuch ta'sirida chukma katlamli va filtr tusiklardan utadi xamda barabandan uzluksiz chikarib turiladi. Bosimlar farki markazdan kochma kuch ta'sirida xosil kilinadi. Barabanning aylanish natijasida markazdan kochma kuch ta'sirida suspenziya yoki emulsiya baraban devori tomoni xarakat kiladi. zichligi katta bulsa suyuqlik va kattik fazalar baraban devori yakinida zichligi kamrok bulgan boshka faza esa uk atrofida yigiladi.

Ish rejimiga kura yentrifugal

1. davriy.

2. uzluksiz buladi.

Baraban valining urnatilishi xolatiga karab gorizontal va vertikal sentrifugalarga bulinadi

Davriy ishlaydigan sentrifugalarda chukma kul yordamida gravitasion kuch (yoki ogirlik kuch) va pichok bilan tushiiladi.

Uzluksiz ishlaydigan sentrifugalarda chukma shnek yordamida inersion va pulsasion kuchlar ta'sirida tushiriladi.

Sentirifugalarning ish unumdorligi ajratish koefisientiga boglik. Ajratish koefisienti sentirifugalarda markazdan kochma kuchlar maydonida xosil bulgan kuchlanish bilan xarakterlanadi.

Sentrifugada xosil bulayotgan markazdan kochma kuchlar mikdorining ogirlik kuchi tezlanishidan necha marta kupligini kursatuvchi kattalik ajratish koefisienti d-di.

Ajratish koefisientiga kura xamma sentirifugal 2 guruxga bulinadi.

1. normal sentrifugal ($Ra < 3500$)

bunday sentrifugal suspenziyadan katta, urtacha va maydarok zarrachalarni ajratish uchun ishlatiladi.

2. urtacha sentrifugal ($Ra > 3500$)

bunday sentrifugal mayda zarrachali suspenziyalarni ajratish uchun kulaniladi.

Sentrifugalash apparatlari.

Sanoatda, emulsiya va suspenziya tarkibiga karab ularni ajratish uchun turli xildagi sentrifugal ishlatiladi.

Filtrlovchi sentrifugal

Bu sentrifuga barabandan yoki rotordan iborat barabanning ichki yuzasi katta teshikli tur va uning ustki yuzasi mayda teshikli material bilan koplangan. Truba orkali barabanga turli jinsli suspenziya beriladi. baraban El.dv. yordamida aylanma xarakat kiladi. baraban ichidagi suspenziya aylanma xarakat kilganda unga markazdan kochma kuch ta'sir kiladi. Bunda suyuk fazada gidrostatik bosim xosil buladi. Bu bosim sentrifugada filtrlashning xarakatlantiruvchi kuchi xisoblanadi. bu kuch ta'sirida suyuk faza filtr tusiklar ustida xosil bulgan chukmadan utib tozalanadi. Filtrlovchi sentrifugada boruvchi jarayon 3 ta fizik jarayonlar yigindisidan iborat.

1. chukma xosil kilish.
2. chukmaning zichlanishi.
3. chukmadan suyuklikni chikarish.

Filtratning (fugat) apparatdan patrubka orkali chikariladi. Ajratishdan sung chukma suv bilan yuviladi. Barcha jarayonlar tugagach sentrifuga tuxtatiladi, konus yukoriga kutariladi va chukma tushiriladi.

Chuktiruvchi sentrifuga.

Chuktiruvchi sentrifuganing barabani yaxlit buladi. Bunday sentrifuganing ishlash prinsipi chuktirish apparatlarining ishlashiga uxshash. Turli jinsli sistema barabanga truba orkali beriladi. barabanning aylanishida markazdan kochma kuch ta'sirida zichligi kattarok bulgan komponent barabanning ish yuzasiga yigiladi, zichligi kamrok bulgan komponent esa aylanish ukiga yakinrok joyda yigiladi. Fugat truba orkali tashkariga chikariladi. Chukma katlami Amaliy jixatdan barabanni tuldirgandan sung apparat tuxtatiladi, sungra chukma tushiriladi.

Tarelkali separator.

Bunday separatorlar emulsiyalar va mayda zarrachali suspenziyalarni ajratish uchun ishlatiladi. Tarekali separatorning ichiga bir necha konussimon tarelkalar urnatiladi. Shu sababli suyuklik bir necha yupka katlamlarga bulinadi. Natijada suyuklik laminor rejim bilan xarakat kiladi, va shuning uchun zarrachalarning chukish yuli kamayadi. Aralashma markaziy truba orkali pastga tushadi. Markaziy truba baraban bilan birga aylanadi.

Markazdan kochma kuch ta'sirida suyuklik apparatning devori tomon xarakat kiladi, sung tarelkalarga utadi. Yengil suyuklik markaziy trubaga yakin joyga yigiladi va yukoriga tomon xarakat kilib apparatdan chikib ketadi. Ogirrok, kuyuklashgan komponent esa apparat devori yoniga yigilib sungra yukoriga tomon xarakat kiladi va boshka patrubkadan chikib ketadi.'

Oddiy chuktirish apparatlarida gaz aralashmalaridagi mayda changlarni ajratish ancha kiyin. Chuktirish apparatlarining gabariti katta bulganligi uchun ular kup joyni egallaydi. Bundan tashkari gazlarni tozalash darajasi ancha

kichik. Shuning uchun changli gaz aralashmalarini tozalash uchun sanoatda siklonlar keng ishlatiladi. Sgущyeniya kukuruzный kashki, shakar ishlab chikarishda spirt ishlab chikarishda. Keng kullaniladi.

MA'RUZA № 11

Mavzu: Ozik-ovkat maxsulotlarini kuritishning texnologik asoslari.

Reja:

- 1-s. xom-ashyoni kuritishga tayyorlash.
- 2-s. kuritishda nam usimlik maxsulotlarining xususiyatlari.
- 3-s. materiallarni namligi va namlik tutish kobiliyati.

Ozik-ovkat maxsulotlaridan kuritish uchun eng kup kullaniladigan xom-ashyolar: kartoshka, kuk nuxatcha, sabzi lavlagi, karam, piyoz, olma, bexi, urik, karoli, xurma va boshkalar xisoblanadi. bu kishlok xujalik maxsulotlari meva va sabzavot kuritish korxonalarining asosiy xom-ashyosi buladi.

Kuritish jarayonida xom-ashyoning tuzilishi, ximiyaviy, texnologik xossalari, issiklik fizikaviy tavsiflari, termodinamik parametrlari: namlikni uzutilishidagi xossalari, xom-ashyo tarkibining namlik bilan boglanganligi, issiklik almashinishi, material ichidagi namlikning almashinishi kabi xossalari asosiy rolni bajaradi.

Xom-ashyonim kuritishga tayyorlash.

Xom-ashyoni kuritish jarayoniga tayyorlashda maxsulotning turiga karab tayyorlash texnologiyasi tanlanadi. Masalan: kartoshka, sabzi, lavlagi kuritishdan oldin yuviladi, kalibrovka kilinadi, tozalanadi (mexanizmlar yordamida, yuvuvchi moddalar bilan, suv bugli aralashma bilan, ishkor bugli aralashma va boshkalar bilan) kayta tozalash, kesish, blanshirlash va sulfitasiyalash jarayonlaridan utkaziladi.

Karamni kuritishdan olidin navlarga ajratiladi, bandlaridan tozalanadi, tashki ya'ni bargalaridan tozalanadi, inspeksiyanadi, tugraladi, blanshirlanadi va bisulfat natriy bilan ishlov beriladi.

Kuk nuxatga esa kuritishdan oldin elab tozalanadi, kolibrlanadi, inspeksiyanadi va suvda blanshirlanadi. Olma, bexi va noklar inspeksiyanadi, kolibrlanadi, yuviladi, pustidan tozalanadi, urugidan ajratiladi, turli xil shakllarga kesiladi va sulfit yoki limon kislotasi eritmasi bilan kayta ishlanadi. Urikni kuritishdan oldin navlarga ajratiladi, kolibrlanadi, yuviladi, bulaklarga bulinadi va sulfat kislotasi eritmasi bilan ishlov beriladi.

Xom-ashyoga mexanik ishlov berishda yuvish va kesish jarayonlari materialning strukturasini uzgartirmaydi. Lekin material yuzasidan pustini

tozalashda, urugi va urugdonlarni olishda vam ayda bulaklarga maydalashda maxsulot va ishlov berish agentlarining kontakt yuzasi oshadi natijada xom-ashyoning blanshirlashi va kurishi tezlashadi.

Sulfitasiya – materiallarni korayishini oldini olish maksadida xom-ashyolar kuritilishidan va saklanishidan oldin sulfitasiyalanadi. Sulfitasiyalash 0,1/0,5% li natriy sulfat Na_2SO_3 , natriy bisulfat NaHSO_3 natriy piro-sulfat $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_5$ eritmalariga xom-ashyoni va materiallarni ma'lum bir muddatda botirish yuli bilan amalga oshiriladi. Maxsulotlar asosan 2-3 min davomida botiriladi. Ba'zi xollarda materiallar ustidan eritma maxsus kurilmalar orkali olinadi bunda vakt 20-30 sekundni tashkil kiladi. Bu jarayon kartoshka uchun tozalash va blanshirlashdan sung, karam va sabzini blanshirlashdan sung, olma,bexi, nok va urikni kesishdan sung amalga oshiriladi.

Sulfat kislotasi va tuzlari eritmaları bilan kayta ishlanganda uning kuchli kaytaruvchanlik kobiliyati tufayli oksidlovchi fermentlar aktivligini susaytiradi bu xisobiga esa maxsulotda buladigan fermentativ korayish jarayoni tuxtadi. Bundan tashkari SO_2 erkin karbonil guruxlari bilan birikib shakarlarda buladigan melonoidinxosil kiluvchi reaksiyalarni tuxtatadi.

Sulfitasiyalash tufayli maxsulot tukismasidagi utkazuvanlik kobiliyati pasayadi, natijada materialning rangi, askorbin kislotasi mikdori saklanadi, ammo V vitamini parchalanadi, piyoz tarkibida SO_2 ta'sirida ta'mi, xidi, achchikligi yukoladi.

Kuritilgan materiallarda SO_2 mikdori: kartoshkada 0,04% dan, karamda 0,06% dan kolgan materiallarda esa 0,01 % dan oshmasligi kerak.

Issiklik ishloa berish (blanshirlovka) piyoz, xurma, olma, nok, bexi, urik va ba'zi birshunga uxshash kishlok xujalik maxsulotlari kuritishga issiklik ishlovi berilmasdan keltiriladi. bunda bu maxsulotlarning strukturasi, ximiyaviy tarkibi, kolloidlik xususiyatlari uzgarmaydi.

Kartoshka, sabzi, lavlagi, karam, kuk nuxatlar va shunga uxshash ba'zi bir kishlok xujalik maxsulotlari kuritishdan oldin issiklik bilan ishlov beriladi ya'ni blanshirkalanadi. Buning natijasida oksilning konfigurasiyasining uzgarishi xisobiga maxsulot tarkibida boradigan oksillanish-kaytarilish reaksiyalari tuxtaliladi va maxsulotning ta'mi, xidi, rangi yaxshi saklanadi, maxsulot sargaymaydi va konsistensiyasi yaxshi saklanadi.

Barcha maxsulotlar uchun blanshirlash rejimi issiklikga barkaror bulgan fermentlar xisobiga peroksidoza reaksiyasi orkali aniklanadi.

Kuyidagi jadvalda (1) Blanshirlashning kuritishga ta'siri kursatilgan.

material	kuritish	Kuritishdan oldingi ishlov berish	Ma'lum mikkordagi namlik % gacha kuritish uchun ketgan vakt (min)				
			100	50	30	20	10
Kartoshka 10x10x10 mm	120	Ishloa berilmasdan blanshirlangan	22,5	41	53,5	63	80
			27	50	66	77	96
	100	Ishlov berilmagan blanshirlangan	27	44	68	-	-
			33	67	91	-	-
	80	Ishlov berilmagan blanshirlangan	39	80	92	-	-
			38	78	95	-	-
Lavlagi 10x10x10 mm	120	Ishlov berilmagan blanshirlangan	18	24,5	31	36	43
			21	29	34	40	47
	80	Ishlov berilmagan blanshirlangan	31,5	46,5	59,5	-	-
			38	61	83	-	-
Karam	140	Ishlov berilmagan blanshirlangan	11,5	14	15	16	-
			9	10,5	11,5	12	-
	80	Ishlov berilmagan blanshirlangan	32	38	40	48	-
			25	29	32	39	-
Sabzi 10x10x10 mm	120	Ishlov berilmagan blanshirlangan	21	28	33,5	37	45
			19	27	32,5	37	42

Mavzu: №12

Reja:

- 1-s. materiallarning issiklik fizikaviy tavsifi.
- 2-s. nam xavoning termodinamik asoslari.
- 3-s. kuritish termodinamikasi.
- 4-s. kuritish jarayonini xisobi.

Kuritish jarayonini issiklik xisobini, kuritishni rejimini tanlash va kuritish jarayonini izlanishlarini olib borish uchun albatta materiallarning issiklik fizikaviy tavsiflarini bilishimiz kerak. Bular: solishtirma issiklik sigimi, issiklik utkazuvchanlik va xarorat utkazuvchanlik kabi kattaliklardir.

Solishtirma issiklik sigimi deb materialni massa birligidagi xaroratini 1°S ga kutarish uchun sarflangan issiklik mikdoriga aytiladi va $(\text{kJ}/(\text{kg}\cdot\text{K}))$ birligida

ifodalanadi. Materialning solishtirma issiklik sigimi S_m xarfi bilan belgilanadi va additivlik koidasiga buy sunadi.

$$S_m = \frac{S_{kuruk}(100 \omega^0) + S_{H_2O}}{100} = \frac{S_{kuruk} * 100 + S_{H_2O} \omega^c}{100 + \omega^c}$$

bu yerda S_{kuruk} - kuruk materialning solishtirma issiklik sigimi

S_{H_2O} - suvning solishtirma issiklik sigimi bulib.

$S_{H_2O} - 4,1868 \text{ kDj}/(\text{kg} \cdot \text{k})$ ga teng

ω^0 – materialning namlik mikdori % yoki kg

ω^c – materialni namlikni saklash kobiliyati % yoki kg

$$\omega^0 = \frac{W}{M} * 100 = \frac{W}{M_{kuruk} + W} * 100$$

$$\omega^c = 100 * \frac{W}{M_{kuruk}}$$

Kuyida ozik-ovkat maxsulotlaridan ba’zilarining kuruk moddlarini solishtirma issiklik sigimlari beriladi: kartoshka, sabzi, Kuk nuxat, lavlagi, olma, bexi, nok, uriklarniki – 1,424 karam va piyozda – 1,382; kaynatilgan nuxat – 1,550, kuritilgan sutda- 1,256 va boshkalar. Ozik-ovkat maxsulotlarining solishtirma issiklik sigimi kuritish jarayoni tufayli kamayadi, ammo temperaturaning oshishi bilan kamayadi.

Issiklik utkazuvchanlik koeffisenti – materialning uzunlik birligida xaroratning 1°S uzgarishi natijasida maxsulot yuzasidan issiklik utkazish kiymatiga aytiladi va λ xarfi bilan belgilanadi.

$$N \lambda = \frac{Q}{FJ \Delta T/L}$$

Bu yerda: λ - issiklik utkazuvchanlik koeffisenti, $\text{Vt}/(\text{m} \cdot \text{k})$

Q - isiklik berishning kiymati, Dj/kg

F – material yuzasi. M^2

J – vakt sekund

ΔT - temperaturalar farki $^\circ\text{K}$

L – uzunlik ulchami. m

Issiklik utkazuvchanlik koeffisienti materialning strukturasiga zichligiga, temperaturasiga va namlik darajasiga boglik buladi va xarorat namlikni oshishi bilan ortib boradi.

Xarorat utkazuvchanlik koeffisienti a xarfi bilan belgilanadi va materialning xaroratining uzgarishini kursatadi. Kuritish jarayonlarida xarorat utkazuvchanlik koeffisienti katta axamiyatga ega bulib, issiklik diffuziyasi koeffisientini kursatadi bu quyidagi formula bilan ifodalanadi.

$$a = \frac{\lambda}{Sg}$$

bu yerda: Sg – materialning xajmiy issiklik sigimi.

Kuritishda nam usimlik maxsulotlarining xususiyatlari. Usimlik tukimalar morfologik va funksional bir jinsli tukimalardan iborat bulib, ular tukimalarga urtangi bog plastinkalari bilan, protoplazma-plazmodesli va suv fazasi bilan boglangan buladi. Urtangi bog plastinkalari gemisellyuloza va pektin moddalaridan iborat buladi.

Usimlik maxsulotlari kuritish obyektlari sifatida ximiyaviy kurilish, yokilgi va boshka tirik bulmagan materiallardan tukimasi tarkibidagi erkin suvlar borligi bilan fark kiladi. Bu suv xama vakt komponentlar bilan birikkan bulib, eritmalar xosil kiladi.

Tukimaning asosiy aktiv kismi bulib, sitoplazma va yadrodan iborat bulgan protoplazma katlami xisoblanadi. Protoplazma uch kavatli tashki tukima kavati bilan koplangan, undan ortik elementlardan tashkil topgan katlamni esa membranalar urab turadi. Bu membranalar tarkibidagi suvning chikarish kiyin bulgan membrana utkazuvchanligiga boglik buladi.

Materiallarning namligi va namlik tutish kobliiyati turli xil nam usimlik materiali kattik, suyuk va gaz fazalaridan iborat buladi. Kattik faza kristall panjaralar shaklidagi kattik skeletni yoki xootik tuzilgan karkasni tuzilishini tashkil kiladi. Suyuk faza esa zarrachalar xarakatini, sikilmasligini, uzgarmas zichlik orkali ifodalanadi. Gaz faza esa sikuluvchanligi va xajmiy kengashini kursatkichlari bilan fark kiladi. Shuning uchun kuritish jarayonida nam material absolyut kuruk modda va namlikdan tuzilgan deb xisoblanadi.

$$M = M_k + W$$

M – nam material massasi, kg

M_k – absolyut kuruk material massasi, kg

W – namlik massasi, kg

$$W = M_1 - M_2$$

W - buglatilgan namlik mikdori.

M_1 - namligi bulgan materialning massasi

M_2 – kuritilgan material massasi.

Mavzu № 13

Reja:

1-s. J-D diagrammasi

2-s. kuritishning afzalligi.

3-s. kuritish jarayonida nam materialdagi suyaklik va bugning xarakati.

J-D diagrammasiga orkali konvektiv kuritish usuli bilan ishlaydigan kuritish kurilmasini butun kuritish jarayonini faraz kilgan xolda issiklik xisobini bajarish mumkin. Bu J-D diagrammasi orkali na fakat kuritish jarayonini grafik xisoblashlarini balki, sovutish jarayonini, ventilyasiya jarayonini, isitish jarayonini, kondensasiyalash jarayonini va xavoning aralashish jarayonlarini grafik xisoblashlarini bajarish mumkin.

J-D diagrammasining koordinati uklari sifatida kuritish agenti bulgan xavoning parametrlari kabul kilingan bulib, Entalopiya J va namlik mikdori d . Ordinata uki buylab kuruk xavoning entalpiya J (kJ/kg) anik masshtab ostida joylashtirilgan. J - entalpiya uzgarmas bulgandagi, ya'ni $J = \text{const}$ tugri chiziklari ularga 45° burchak ostida joylashgan. Agarda J-D diagrammasi tugri chizikli koordinatalarga kurganimizda bu diagramma ordinata uki buylab juda uzun bulib ketadi, shuning uchun bizga kulay bulishi uchun bu diagrammaning kiyshik burchak ostida ya'ni uklar ostidagi burchak 135° kilib tuzamiz.

Namlik mikdori d –ni anik masshtab tanlab absissaning yordamchi ukiga joylashtiramiz. Bunda xam uzgarmas namlik $d = \text{const}$ J-D diagrammasiga vertikal xolatda ya'ni ordinata ukiga parallel xolda joylashtiramiz.

Barcha J-D diagrammalar urtacha barometrik bosim ya'ni 745 mm, simob ustini yoki 99,31 kPa bosim kursatkichi buyicha kurilgan bulib, bunda izotermalar $T = \text{const}$ uzgarmas deb xisoblab J-D diagramma uchun quyidagi tenglama asosida kuramiz.

$$J = C_{k.m.T} + \frac{d}{1000} (2500 + 1.875 T)$$

Temperatura (T) va entalpiya J ning chizikli boglanishi J-D diagrammada $T = \text{const}$ temperaturani uzgarmas deb tugri chiziklar bilan joylashtiriladi. Shuning uchun $T = \text{const}$ chizigini kurish uchun ikkita nuktani olish kifoya: bu $d = 0$ va $T = J$

bulgandaligi nuktalar. Namlik mikdori d -ni bir nechta qiymatlarini tenglamaga kuyib temperatura T -ni topsak

$$T = (J - \frac{d}{1000} \cdot 25000) / (Ck.m. + 1,875 \cdot d/1000)$$

va entalpiya J ni topsakda, J va d ning kesishgajoyiga T -ni kuysak va bir xil qiymatli teperaturalarni bir-biri bilan ulashtirib uzgarmas temperatura izotermalari (T) ni topamiz. J - D diagrammada izotermalar orasidagi fark 10^0S ni tashkil kiladi va bular kiyshay chiziklardan iborat buladi. Temperaturning kutarilishi bilan izotermalar yukorilab boradi, va gorizontal buylab kiyshayib boradi.

Xavoning solishtirma namligi ℓ xam uzgarmas $\ell = const$ $\ell = h/h_t$ h – suv bugining parsialbosim h_t - tuyingan bugning parsial bosim formula asosida topiladi va diagrammaga kuyiladi. Shunday kilib, J - D diagramma tuziladi.

Kuritishning avzalligi. Kuritish jarayonidagi avzallikni bilish uchun xavoni parametrlari va 1 kg namlikni (suvni) buglatish uchun sarflangan issiklik mikdorini bilish kerak. Bu jarayondagi texnologik rejialarni taxlil kilishdan kuyidagi xulosalarga erishimiz.

1. isitgichdagi xavoni kizdirish teperaturasi kancha katta bulsa, kuritish jarayonidagi xavoning sarfi shuncha kam buladi.

2. kuritish kamerasiga kirayotgan xavoning xarakatini oshishi bilan gorizontal ukdagi kayrilish burchagi kamayadi, ya'ni materialdan namlikni buglatish uchun issiklik sarfi kamayadi.

3. xovoni kizdirmasdan kuritish jarayonini amalga oshirib bulmaydi.

4. kuritish jarayonida kuritish agenti kayta-kayta ishlatish mumkin.

Agarda materialni kizdirilganda xavodan bir marotaba foydalanib kuritishda, maxsulot uchun maksimal mumkin bulgan xarorat bilan kizdirish bilan amalga oshirish maksadga muvofikdir. Shuning uchun sachratish usuli bilan kuritish usulida (masalan sutni kuritishda) kaloriferdagi xavoni $180-200^0S$ gacha kizdirish mumkin. Bu esa $140-160^0S$ gacha kizdirilgandan kura avzalrok buladi, lekin kuruk sutning xarorati va undan chikayotgan xavoning temperaturasi 80^0S dan oshmasligi kerak.

Kuritish agentidan bir necha bor foydalanish bilan bajariladigan kuritish jarayonida kuritish agenti kushimcha kizdirish va resirkulyasiya jarayoni bilan olib boriladi.

Ma'ruza №14

Mavzu: Issiklik jarayonlarning turlari isitish, sovutish va kondensasiyalash.

Reja:

1-s. Suv bugi va issik suv bilan isitish jarayonlari va kurilmalari isitish issiklik jarayonini xarakatlantiruvchi kuchi

2-s. Yukori xaroratli moddlar bilan isitish issiklik tashuvchilar elektr toki bilan isitish.

3-s. Sovutish jarayonlari. Sovuklik tashuvchilarni turlari va sulovuklik tashuvchilarni tarkalishi.

Ozik-ovkat sanoatida suyuklik, gazlar, materiallarni isitish, sovutish buglarni kondensasiyalash kabi issiklik jarayonlari keng tarkalgan. Bunday jarayonlar issiklik almashinish apparatlarida amalga oshiriladi.

Issiklik almashinish jarayonlarida katnashuvchi moddalar issiklik tashuvchi agentlar d-di.

Yukori temperaturadi bulib uzidan issiklikni isitilayotgan muxitga beruvchi moddalar isituvchi agent d-di.

Ozik-ovkat sanoatida maxsulotni ishlab chikarish texnologiyasida kupincha bevosita issiklik banbai sifatida kilgilarni yonishidan xosil bulgan gazlar va elektr energiyasi ishlatiladi.

Bunday bevosita issiklik manbalaridan issiklik olib uzining issikligini apparatning devorlari orkali isitilayotgan muxitga beruvchi moddalar oralik issiklik tashuvchi agentlar d-di.

Oralik issiklik tashuvchi agentlarga

1. suv bugi.

2. issik suv.

3. yukori temperaturali issiklik tashuvchilar moddlar a) kizdirilgan suv, b) mineral moylar, v) organik suyukliklar, g) buglar d) suyultirilgan tuzlar kiradi.

Suv bugi bilan isitish.

Sanoatda isituvchi agent sifatida tuyingan suv bugi keng ishlatiladi. Bugning kondensasiyalanishida katta mikdorda isiklik ajraladi. Bugning kondensasiyalanishi issiklik $9,8 \cdot 10^4$ N m² bosimda $2,26 \cdot 10^6$ j kg ga teng. Tuyingan suv bugi ma'lum bir bosimda bir xil temperaturadi kondensasiyalanadi. Suv bugining temperaturasi ortishi bilan ular bosimi ortadi.

Bu uning kamchiligi. Shu sababli amalda tuyingan suv bugi yordamida fakat 180...190 °S isitish mumkin, bunda bosim 1...1,2 MPA ga teng buladi.

Utkir Bug bilan isitish.

Bunda suv bugi tugridan tugri isitilayotgan suyuklikka utadi xosil bulgan kondensat esa suyuklik bilan aralashadi. Suyuklikni bir paytning uzida isitish va aralashtirish uchun barbotyor orkali suv bugi yuboriladi.

Issiklik jarayonlarining xarakatlantiruvchi kuchi.

Muxitlar temperaturasi urtasida biror fark bulgandagina issik temperatkrasi yukori bulgan muxitdan temperaturasi past bulgan muxitga utadi. Bunday temperaturalar farki issik almashinish yuzasi buylab uzgaradi., ya'ni ular bir xil kiymatga ega bulmaydi. Shu sababli issiklik almashinish jarayonlarini xisoblashda urtacha temperaturalar farki Δt urt degan tushuncha ishlatiladi. Muxitlarning urtacha temperaturalar farki isik almashinish jarayonlarining xarakatlantiruvchi kuchi deb yuritiladi. Suyukliklar temperaturalarining issiklik almashinish yuzasi buyicha uzgarishining uzaro yunalishiga boglik issik almashinish apparatlarida issik va sovuk suyukliklar

1. paralell
2. karama-karshi
3. uzaro kesishgan bulishi mumkin

issiklik tashuvchi agentlarning yunalishi bir yoki karama-karshi tomonga yunalgan bulsa, urtacha temperaturalar farki:

$$\Delta t_{urt} = \frac{\Delta t_{ka} - \Delta t_{ki}}{2,3lg \frac{\Delta t_{ka}}{\Delta t_{ki}}}$$

Δt_{ka} - Δt_{Ki} - issik almashinish apparatlarining chetlaridagi temperaturalarining chetlaridagi temperaturalarining katta va kichik farqlari.

Agar issiklik tashuvchi agentlarning yunalishi uzaro kesishsa urtacha temperaturalar farki.

$$\Delta t_{urt} = Ye \Delta t \frac{\Delta t_{ka} - \Delta t_{ki}}{2,3lg \frac{\Delta t_{ka}}{\Delta t_{ki}}}$$

$$\Delta t_{ka} - \Delta t_{ki}$$

$$\Delta t_{urt} = \text{-----}$$

